

O‘ZBEK VA HINDIY TILLARIDA JINSNING IFODALANISHI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-676-682>

Ko‘chimova Parizod To‘lqin qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, o‘qituvchi
e-mail:parizod.kuchimova.96@bk.ru tel: +998903474437

ANNOTATSIYA

O‘zbek tilida grammatik jinsning yo‘qligi va turkiy tillarda faqat biologik jinsning lisoniy ifodasi mavjudligi haqida mulohazalar bildirilgan. Otlarda jinsning ifodalanishi masalasi o‘zbek tili darsliklaridan mutlaqo chiqarib tashlangan bo‘lsada, o‘zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi masalasi ayrim tadqiqotchilar ishlarida onda-sonda yoritib kelingan. Hindiylardan ikkita grammatik jins mavjud. Zamonaviy hind tilidagi jins kategoriyasi otlarning obyektiv ma’nosini ifodalashning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi va nutqning ushbu qismiga xos xususiyatdir.

Kalit so‘zlar: gender, jins kategoriyasi, biologik jins, muzakkarr jins, muannas jins.

GENDER IN UZBEK AND HINDI LANGUAGES

ABSTRACT

There is no grammatical gender in the Uzbek language and there is only a linguistic expression of the biological gender. Although the issue of the gender of nouns has been completely removed from Uzbek textbooks, the issue of gender in the Uzbek language has been raised from time to time in the works of some researchers. There are two grammatical genders in Hindi language. The gender category in modern Hindi serves as the main means of expressing the objective meaning of nouns and is a characteristic of this part of speech.

Keywords: gender, gender category, biological gender, feminine, masculine.

Tadqiqotlarda o‘zbek tilida grammatik jinsning yo‘qligi va turkiy tillarda faqat biologik jinsning lisoniy ifodasi mavjudligi haqida mulohazalar bildirilgan. Ammo jins tushunchasi ifodasi o‘zbek tilida qay tariqa amalga oshishi, jinsnifodalashda qanday lisoniy vositalar faol ishtirok etishi, bunda oraliq hodisalar mavjudligi haqidagi savollar shu paytgacha yirik tadqiqot doirasida o‘rganilgan emas. To‘g‘ri, bu boradagi ayrim fikrlarni grammatika darsliklarida, ayrim maqolalarda ko‘rishimiz

mumkin. Masalan, XX asrning 70-yillarigacha rus tili ta'sirida yaratilgan o'zbek tili grammatikalarida otlarda grammatik jins kategoriyasiga alohida o'rin berilgan va o'zbek tilida tirik mavjudotlar jinsini ifodalashda uchta: leksik, morfologik va sintaktik usullar mavjudligi ta'kidlangan. A.N. Kononov ham o'zining "O'zbek tili grammatikasi"da shunga yaqin fikrni bildirgan. Ammo keyingi davrda yaratilgan darsliklarda, grammatikalarda jins masalasiga umuman e'tibor qilinmagan [Musayeva F.T., 2019: 12].

Otlarda jinsning ifodalanishi masalasi o'zbek tili darsliklaridan mutlaqo chiqarib tashlangan bo'lsa-da, o'zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi masalasi ayrim tadqiqotchilar ishlarida onda-sonda yoritib kelingan. Masalan, 1975 yilda L.Reshetova va Q.Umurovlarning "Rod va jins kategoriyasining leksik-grammatik xususiyatlari" nomli maqolasi chop etiladi. Mazkur maqolada mualliflar grammatik rod qanday kelib chiqqan, nega ba'zi tillarda u barqaror emas, turkiy tillarda grammatik jins mavjudmi degan savollarga javob berishga urinib ko'rishadi. M.Rasulova o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida tabiiy jinsning lisoniy ifodasi borasida izlanish olib borgan va jins tushunchasining ifodalanishini qiyosiy aspektda o'rgangan [Rasulova M., 1997: 66].

Yuqorida keltirilgan fikrlarni hisobga olgan holda, "pol" ma'nosida "biologik jins", "rod" ma'nosida "grammatik jins" atamalarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

XIX asr o'zbek tilida qisman bo'lsa-da grammatik jins kategoriyasi mavjud bo'lgan: 1. Muzakkar jins: mazkur elchi; 2. Muannas jins: mazkura qizlar

Hozirgi zamon o'zbek tilida shoir-shoira, muallim-muallima kabi ayrim jinsnifodalomchi holatlar uchrab, ular faqat shaxsotlarigagina qo'shilib, kishilarning biologik jinsi farqlanadi.

Hindiy tilida ikkita grammatik jins mavjud: *पूर्णिंग* - *pulling* muzakkar jinsi va *स्ट्रीलिंग* - *striling* muannas jinsi. Hindiy tilida otlarning jinsini anglatuvchi ko'rsatkichlar mavjud emas. Shu sababli otlarning jinsini ularning ma'nolari bilan birga yodlab olish kerak. Gapda otlarning jinsiga qarab fe'l shakli o'zgaradi.

Zamonaviy hind tilidagi jins kategoriyasi otlarning obyektiv ma'nosini ifodalashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi va nutqning ushbu qismiga xos xususiyatdir. Agar o'zgaruvchan sifatlar, tartib sonlar, olmoshlar, ergash gaplar, fe'l shakllari faqat kelishuv asosida jins toifasini egallasa, ot uchun jins kategoriyasi dastlab o'ziga xos morfologik xususiyatdir. Hindiy tilida barcha otlar ikki grammatik

jinsdan biriga – muzakkar yoki muannasga tegishli: masalan, **б�п** “ota”, **жайыл** “aka”, **бета** “o‘g‘il”, **йар** “uy”, **пән** “daraxt” otlari muzakkar va **матта** “ona”, **бен** “opa”, **бети** “qiz”, **пүстк** “kitob” – muannas jinsga mansub.

Hindiy tilida otlarning jinsi quyidagicha ifodalanadi:

a) sintaktik, ya’ni jinsga oid so‘zlarning berilgan otga mos keladigan shakllari, ya’ni o‘zgaruvchan sifatlar, tartib sonlari, olmoshlar, ergash gaplar, fe’l shakllari, **ка** poselogi, masalan, **यहाँ बड़ा बाग है** – *bu yerda katta bog‘ bor*, **यह दसवाँ घर है** – *bu o‘ninch uy*, **वह हमारा मित्र है** – *u bizning do‘stimiz*, **लड़का हँसता है** – *bola kulmoqda*, **बेटा आयेगा** – *o‘g‘il keladi*, **यह मेरी किताब है** – *bu mening kitobim*, **लड़की रोती है** – *qiz yig‘lamoqda*, **बहन आयेगी** – *opa keladi*, **मेरे पास सोने की अंगूठी है** – *menda tilla uzuk bor*, **पुस्तकालय में बहुत सी पुस्तकें हैं** – *kutubxonada kitoblar juda ko‘p* [Dimshits Z.M., 1986: 46]. Misollarda keltirilgan “a” bilan tugagan otlar hamda ularga moslashtirilgan so‘zlarning “a” bilan tugashi otlarning muzakkar jinsga tegishli ekanini ko‘rsatadi, “i” bilan tugagan otlar hamda ularga moslashtirilgan so‘zlarning “i” bilan tugashi otlarning muannas jinsga tegishli ekanini ko‘rsatadi.

b) morfologik, odatda otlarning jinsini va so‘zlarning jinsini aniqlashning aniq qoidalari yo‘qligi sababli ular jinsi bilan yodga olinishi kerak, shuning uchun amaliy maqsadlar uchun otlarning umumiy tasnifining asosiy qonunlarini ikkala jihatidan ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqlir. Ularning semantik ma’nolari va grammatic tuzilishi. U yoki bu grammatic jinsga otlarni ularning semantikasi asosida berishda quyidagi qoliplar mavjud.

Muzakkar jins. Erkak shaxsiga xos so‘zlar: **पती** – *er*, **आदमी** – *odam*, **स्वामी** – *xo‘jayin*, **दादा** – *buva*, **सासा** – *amaki*, **बेटा** – *o‘g‘il*, **भतीजा** – *jiyan*. Erkak(nar) hayvonlarning nomlari: **ମେଡ୍** – *qo‘y*, **କକରା** – *taka*, **ବାଘ** – *yo‘lbars*, **ବୀଜଳା** – *mushuk*. Metallar, minerallar va qimmatbaho toshlar nomlari: **सोना** – *oltin*, **లୋହା** – *temir*, **କୋଯଳା** – *mis*, **ହୀରା** – *olmos*, **ଲାଲ** – *rubin* va h.k., **ଚାଂଦୀ** – *kumush* istisno hisoblanib muannas jinsga mansub. Ko‘pchilik suyuqlik nomlari: **તେଲ** – *neft*, **ଦୂଧ** – *sut*, **ପାନୀ** – *suv*. Daraxt nomlari: **सागवान** – *tik daraxti*, **देवदार** – *kedr daraxti*, **चीଙ୍ଗ** – *archa*, **आମ**

— *mango darxti*, **नीम** — *nim daraxti* va *h.k.*, **इमली** — *tamarind daraxti* istisno hisoblanib muannas jinsga mansub. Donli o'simliklar nomlari: **गहूँ** — *bug'doy*, **धान** — *guruch*, **मर्टर** — *no'xat*, **मक्का** — *jo'xori*, **जौ** — *arpa*, **बाजरा** — *tariq*; **जुवार** — *tariq* istisno hisoblanib muannas jinsga mansub. Osmondagi narsalar va sayyoralar nomlari: **सूर्य** — *quyosh*, **चाँद** — *oy*, **मंगल** — *Mars*, **बुध** — *Merkuriy*, **शानि** — *Saturn* va *h.k.* Tog' va mamlakat nomlari: **हिमालय** — *Himolay*, **भारत** — *Hindiston*, **चीन** — *Xitoy*. Hind kalendaridagi oy va kun nomlari: **रविवार** — *yakshanba*, **सोमवार** — *dushanba*, **चैत्र** — *chayt oyi* (*mart-aprel*), **बैसाख** — *baysakh* (*aprel-may*). Ayrim tana a'zolari nomlari: **कान** — *qulog*, **गाल** — *yanoq*, **पेट** — *oshqozon*, **qorin**, **मुँह** — *og'iz*, **सिर** — *bosh*, **हाथ** — *qo'l*, **हाँठ** — *lab*). Hissiyotni anglatuvchi otlar: **प्रेम** — *sevgi*, **क्रोध** — *g'azab*, **आनंद** — *xursandchilik* [Dimshits Z.M., 1986: 47].

Hindiy tilida erkak shaxsiga xos so'zlar, erkak(nar) hayvonlarning nomlari, metallar, minerallar va qimmatbaho toshlar nomlari, ko'pchilik suyuqlik nomlari, daraxt nomlari, donli o'simliklar nomlari, osmondagi narsalar va sayyoralar nomlari, tog' va mamlakat nomlari, hind kalendaridagi oy va kun nomlari, ayrim tana a'zolari nomlari, hissiyotni anglatuvchi otlar muzakkarr jinsda bo'ladi. Yuqorida keltirilgan tana a'zolari nomlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qo'polroq tana a'zolari nomlari muakkarr jinsda.

Muannas jins. Ayol shaxsiga xos so'zlar: **पत्नी** — *xotin*, **स्त्री** — *ayol*, **महिला** — *ayol*, **दादी** — *buvi*, **चाची** — *xola*, **बेटी** — *qiz*, **बहन** — *opa*, **भाभी** — *kelin*. Urg'ochi hayvonlarning nomlari: **गाय** — *sigir*, **भैड़** — *urg'ochi qo'y*, **बकर** — *echki*, **बिल्ली** — *urg'ochi mushuk*. Daryo nomlari: **गंगा** — *Ganga*, **जामुन** — *Yamuna*, **कृष्णा** — *Krishna*, **सिंधु** — *Sind*; **ब्रह्मपुत्र** — *Braxmaputra* istisno hisoblanib muzakkarr jinsga mansub. Ziravorlarning nomlari: **कस्तूरी** — *mushk*, **मिर्च** — *murch*, **राङ्ग** — *xantal*, **खीचरी** — *kichri*, **कड़ी** — *kari*. Ayrim tana a'zolari va qismlarining nomi: **आँख** — *ko'z*, **नाक** — *burun*, **ज़बान** — *til*, **टांग** — *oyoq*, **ठोड़ी** — *iyak*, **गर्दन** — *bo'yin*, **छाती** — *ko'krak*, **उँगली** — *barmoq* [Dimshits Z.M., 1986: 48].

Hindiy tilida ayol shaxsiga xos so‘zlar, urg‘ochi hayvonlarning nomlari, daryo nomlari, ziravorlarning nomlari, ayrim tana a’zolari va qismlarining nomi, ayrim kasalliklar nomlari, til nomlari muannas jinsda bo‘ladi. Yuqorida ko‘rib turganimizdek nozik – nafis tana a’zolari nomlari: *burun*, *ko‘z*, *til*, *barmoq* kabi - muannas jins. *Qulqoq*, *oshqozon*, *qorin* kabi qo‘polroq tana a’zolari nomlari muzakkár jinsda ifodalangan.

Hindiy tilida boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar juda ko‘p. Ushbu tilga sanskrit tilidan ko‘plab so‘zlar o‘tgan. Shuningdek, so‘zlarning katta qismi hindiy tiliga fors va ingliz tillaridan kirib kelgan. Fors tili orqali arabcha so‘zlar ham qabul qilingan.

Sanskritcha otlarning muannas va muzakkár jins shakli hindiy tilida grammatic jinsni saqlab qolgan. Masalan, **नियम** – *qonun*, **खण्ड** – *bo‘lak*, **क्षेत्र** – *qism*, **आकृति** - *ta’na so‘zları muzakkár jinsiga mansub*; **आषा** – *til*, **इस्टाक** – *istak*, **रीति** – *obraz* so‘zları muannas jinsiga mansub; neytral jinsiga tegishli ko‘pchilik sanskritcha otlar hindiy tilida muzakkár jinsni qabul qilgan. Masalan, **दास्तव** – *qullik*, **रत्न** – *qimmatbaho tosh*, **साहित्य** – *adabiyot* [Dimshits Z.M., 1986: 53].

Forscha otlarning jinsi mavjud bo‘lmaganligi sababli hindiy tiliga o‘zlashganda ikkita jinsdan bittasini qabul qiladi. Ikkita usul orqali otlarning jinsi aniqlanadi: semantik (o‘zlashayotgan so‘zning tilda mavjud sinonimi jinsiga qarab); morfologik (oxirgi qo‘shimchasi orqali); Semantik usulda muzakkár jinsiga aylangan otlar: **लब** – *lab* (*sinonimlari* **ఆంఠ**, **హాంఠ**), **गोश्त** – *go‘sht* (*sinonim* **మాంస**), **खर्च** – *xarajat* (*sinonim* **చెయియ**);

Muannas jinsiga aylangan otlar: **ज़बान** - *til* (*sinonim* **जीभ**, **जिहवा**), **शर्मा** - *uyat* (*sinonim* **लज्जा**), **ज़मीन** – *yer* (*sinonim* **भूमि**), **याद** - *xotira* (*sinonim* **धारणा**).

Forscha “-a” bilan tugaydigan otlar agar ular ayol shaxsiga xos hamda urg‘ochi hayvonlarning nomlari bo‘lmasa hindiy tiliga muzakkár jins bo‘lib o‘tadi. Masalan, **कारखाना** – *korxona*, **परदा** – *parda*, **परचा** – *barg*, **पुरजा** – *bo‘lak*, **क्षेत्र** – *qism*, **सौंदर्य** – *kelishuv, bitim* [Dimshits Z.M., 1986: 53].

Arabcha otlar hindiy tiliga o‘zlashganda asosan o‘z jinsini saqlab qoladi. Masalan, **खत** – *xat*, **फर्क** – *farq*, **शक** – *shubha*, **हिसाब** – *hisob* so‘zları muzakkár jins; **मरम्मत** – *tamirlash*, **हालत** – *holat*, **हिफाजत** – *muhofaza* so‘zları muannas jins.

Inglizcha otlar ham hindiy tiliga o‘zlashganda ikkita jinsdan bittasini qabul qiladi. Ikkita usul orqali otlarning jinsi aniqlanadi: semantik (o‘zlashayotgan so‘zning tilda mavjud sinonimi jinsiga qarab); morfologik (oxirgi qo‘sishimchasi orqali). Semantik usulda muzakkarr jinsga aylangan otlar: **бутон** – *botinka* (*sinonim* йўтга), **лампа** – *lampa* (*sinonim* दिया) **номер** – *nomer*, **ракам** – *raqam* (*sinonim* अंक); Semantik usulda muannas jinsga aylangan otlar: **кис** – *to ‘lov* (*sinonim* दक्षिण), **мітинг** – *uchrashuv* (*sinonim* समाज);

“-a” bilan tugagan ingliz tilidan o‘zlashgan otlar muzakkarr jinsga aylnagan. Masalan, **сада** – *soda*, **камера** – *kamera*;

“-i” bilan tugagan ingliz tilidan o‘zlashgan otlar agar ular erkak shaxsiga tegishli bo‘lmasa muannas jinsga aylnagan. Masalan, **компания** – *kompaniya*, **комитет** – *qo ‘mita*, **университет** – *universitet*;

“i” bilan tugagan lekin erkak shaxsiga xos otlar hindiy tiliga muzakkarr jins bo‘lib o‘tgan. Masalan, **депутат** – *deputat*;

Ayrim ingliz tilidan o‘zlashgan otlar ikkita jinsga ham tegishli bo‘ladi. Masalan, **фильм** – *film*, **турнир** – *turnir*, **мусорига** – *musobaqa*.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sanskritcha otlarning jinsi o‘z holicha hindiy tilida saqlanib qolgan. Ayrim sabablarga ko‘ra jinsini o‘zgartirgan otlar ham mavjud. Forscha hamda inglizcha otlarning jinsi bo‘lmaganligi sababli ular hindiy tiliga o‘zlashganda ikki xil usulda o‘zlashadi. Semantik usul – ya’ni o‘zlashayotgan so‘zning tilda mavjud bo‘lgan sinonimi jinsiga qarab hamda morfologik oxirgi qo‘sishimchasi orqali. Arabcha otlar esa hindiy tiliga o‘zlashganda o‘z jinsini saqlab qolgan.

REFERENCES

1. Мусаева Ф.Т. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: филол. фан. фалсафа док. (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2019.
2. Расулова М. Жинс тушунчасининг турли тилларда ифодаланишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997.
3. Дымшиц З.М. Грамматика языка хинди. – М.: «Наука», 1986.

4. Аксенов А.Т. Категория рода в новоиндийских языках (на материале панджаби, хинди и урду), диссертация. – М., 1983.
5. Воронина О.А. Теоретико-методологические основы гендерных исследований // Теория и методология гендерных исследований. Курс лекций / Под общ. ред. О.А.Ворониной. – М.: МЦГИ – МВШСЭН – МФФ, 2001.
6. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10
7. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想 " CHINESE DREAM" AND 类 命 运 共 同 " COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"-A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 1(01), 05-14.
8. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.
9. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.